



# MUZRABOT

O'zbekiston—  
kelajagi  
buyuk  
davlat

Gazeta 1969-yil 1-iyuldan chiqa boshlagan  
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi va tuman hokimligining nashri

2026-yil 14-yanvar  
Chorshanba № 1 (4521)

Вилоят Ҳоқими таширифи

## Топшириқлар ижроси ўрганилди

Кеча Сурхондарё вилояти Ҳоқими Улуғбек Қосимов ҳудудларда амалга оширилаётган инвестиция лойиҳалари ва берилган топшириқлар ижросини ўрганиш мақсадида Музработ туманида бўлди.

Ташириф давомида вилоят раҳбари тумanning «Юртим жамоли» маҳалласида жойлашган «Сурхондарё қурилиш монтаж» МЧЖ томонидан амалга оширилаётган бетон ва бетон маҳсулотлари ишлаб чиқариш лойиҳаси билан танишди. Умумий қиймати 5 миллиард сўм бўлган ушбу лойиҳа доирасида 8 турдаги қурилиш маҳсулотлари ишлаб чиқарилиши режалаштирилган бўлиб, лойиҳа ишга туширилгач 50 нафар фуқаро доимий ва мавсумий иш ўринлари билан таъминланади ҳамда йилига 20 миллиард сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилади.

Шунингдек, вилоят Ҳоқими «Янги Шаҳар» МЧЖ томонидан амалга оширилаётган шоли етиштириш ва шолини

қайта ишлаш лойиҳаси билан ҳам танишди. Умумий қиймати 27 миллион АҚШ доллари ташкил этувчи мазкур лойиҳа доирасида 20 минг гектар ер майдонида шоли экилиб, йилига 16 минг тонна маҳсулотни қайта ишлаш қувватига эга ишлаб чиқариш мажмуаси ташкил этилади. Лойиҳа натижасида 1000 та, жумладан, 250 та доимий ва 750 та мавсумий иш ўринлари яратилиши кўзда тутилган.

Таширувлар якунида вилоят раҳбари лойиҳаларни белгиланган муддатларда ишга тушириш, ишлаб чиқариш қувватларини ошириш ҳамда замонавий технологиялари жорий этиш бўйича масъулларга аниқ топшириқ ва кўрсатмалар берди.



## Таъмирлаш ишлари бошланди

Сурхондарё вилояти Ҳоқими Улуғбек Қосимов раҳбарлигида Музработ тумани йўллардан фойдаланиш корхонаси давлат муассасаси томонидан Д165 «Жарқўрғон ш. – Навшаҳар қ. – Болдир қ. – Туркманистон Республикаси чегараси» автомобиль йўлининг 39–50 километрлари оралигида кенг қўламли таъмирлаш ишлари расман бошлаб юборилди.

Мазкур йўл участкасини таъмирлаш жараёнига замонавий маҳсул техникалар – асфалт ётқизувчи машиналар, автогрейдерлар, йўл текислагичлар, юк автомобиллари ҳамда бошқа зарур механизмлар жалб этилган бўлиб, ишлар белгиланган жадвал асосида сифатли ва қисқа муддатларда амалга оширилиши режалаштирилган.

Тадбирда вилоят ва туман масъул раҳбарлари, соҳа мутахассислари, нуруний оксоқоллар ҳамда жамоатчилик вакиллари иштирок этдилар. Юртимизга хос аънана ва эзгу ниятлар билан маросим аввалида жонлиқ сўйилиб, Қуръон тиловат қилинди. Амалга оширилаётган ишлар халқимиз фаровонлиги, йўл ҳаракати хавфсизлиги ва ҳудуд инфратузилмасини яхшилашга хизмат қилишини тилаб дуога қўл очилди.

Лойиҳа асосида аҳоли ва транспорт воситалари учун қўлайликлар яратилиши, қатнов хавфсизлиги ошиши ҳамда туманларо ва чегарадош ҳудудлар билан боғланиш янада мустаҳкамланиши кўзда тутилган.

**Музработ тумани ҳоқимлиги Ахборот хизмати.**

Қонун кучга кирди

## Давлат бюджетидан ижтимоий Ҳимояга ажратилган маблағларнинг манзиллиги таъминланади

2025 йил 17 декабрда «Аҳолини ижтимоий Ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгаришлар киритиш тўғрисида»ги қонун кучга кирди. Сенатнинг Фан, таълим ва соғлиқни сақлаш масалалари қўмитаси аъзоси Гулнора МАРУФОВА қонуннинг муҳим жиҳатлари ҳақида гапирди:

– Конституциянинг 1-моддасида Ўзбекистон ижтимоий давлат экани белгиланган бўлиб, Мазкур конституциявий тамойилни ҳаётга тўлақонли татбиқ этиш мақсадида аҳолини ижтимоий Ҳимоя қилиш механизмлари янада кучайтирилмоқда. Кам таъминланган оилаларни қўллаб-қувватлаш, ногиронлиги бўлган шахсларнинг

жамиятга мослашиши учун қўлай шароитлар яратиш, касбга ўргатиш ва имтиёзлар бериш орқали уларнинг бандлигини таъминлаш ҳамда моддий аҳолини яхшилаш бўйича амалга оширилаётган ишлар шулар жумласидандир. Ушбу соҳадаги муҳим ўзгаришлардан яна бири – соҳалар тартибга солуви ваколатли орган, яъни Ижтимоий Ҳимоя миллий агентлигининг ташкил этилгани бўлди. Агентлик томонидан ушбу соҳада салмоқли ишлар амалга оширилиб, қатор натижаларга эришилмоқда. Шу билан бирга, ушбу соҳани тартибга солиш, шу жумладан, ижтимоий хизматлар сифатини ошириш ҳамда уларнинг манзиллигини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

(Давоми 3-бетда.)



## Маҳалла фуқаролар йиғини янги бинода

Музработ туманидаги «Яккатол» маҳалла фуқаролар йиғини ходимлари «Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили»ни замонавий янги бинода кутиб олди.

Маҳалла идорасини фойдаланишга топшириш маросимида туман Ҳоқими Абдулла Маматқулов мамлакатимизда кейинги йилларда ўзини-ўзи бошқариш органлари инфратузилмасини ривожлантириш, маҳаллаларни обод ва кўркем қўшага айлантириш юзасидан амалга оширилаётган кенг қамровли ишлар ҳақида атрафчи сўз юритди. Тадбир қатнашчилари ва маҳалла аҳлини Янги йил билан табриклади.

Маҳалланинг янги биноси аҳолига сифатли ва қўлай хизмат кўрсатиш учун бир йўла

замонавий мебель ҳамда бошқа зарур воситалар билан жиҳозланган. Фуқароларни қабул қилиш хонаси, шунингдек, «Маҳалла еттилиги» ходимлари учун етарли шароит яратилган. Бу қўлайликлар аҳоли мурожаатларини жойида тезкор ҳал этишга, маҳалла институтининг жамиятдаги ролини кучайтириб, мавқеини янада оширишга, одамларнинг тинч, тўкин турмуш кечиришига хизмат қилади.

Тантанали маросим иштирокчилари янги бинода яратилган шароитлар билан яқиндан танишди. Янги бино атрафчи эзгу ниятлар билан дарахт кўчатларини қадаб, кўкларамзорлаштиришди.

**Ҳолмўмин МАМАТРАЙИМОВ, ЎЗА мухбири.**

## Яна бир хусусий клиника ишга туширилди



Туманимиз марказидаги «Soliha Malak shifo» МЧЖга қарашли ЛОР клиникаси ўз иш фаолиятини бошлади.

Мазкур муассаса биносининг таъмирланишига 300 миллион сўм миқдоридики маблағ сарфланди. Хусусий шифо маскани ЛОР комбайни, эндоскоп, автоклав ва бошқа замонавий тиббий асбоб-ускуналар билан жиҳозланган.

Клиниканинг очилиш маросимида туман ҳоқимлиги

масъул ходимлари, мутасадди ташкилотлар, шифокорлар ва нуруний отахон-у онахонлар иштирок этишди. Барча йиғилганлар оторинолог шифокор Бехруз Ниёзовнинг келажақдаги фаолиятига омад тилалдилар.

Тантанада Музработ тумани Ҳоқимининг ўринбосари Ф.Раҳмонов иштирок этди.

**С.КУЛБОБОВ.**

Суратда: очилиш маросимидан лавҳа.

14 январь — Ватан Ҳимоячилари кун

## Байрамона кайфият ва кўтаринки руҳ билан

Юртимизда ҳар йили катта ҳурмат ва эҳтиром билан нишонланадиган 14 январь – Ватан Ҳимоячилари кун муносабати билан Музработ туманида тантанали байрам тадбири бўлиб ўтди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, «Халқ ва армия – бир тану бир жон!» деган эзгу ғоя бугунги кунда жамиятимиз ҳаётининг барча жабҳаларида ўз ифодасини топмоқда. Бу эса Қуролли Кучларимизнинг халқимиз билан янада яқинлашиб бораётгани, Ватан Ҳимояси ҳар бир фуқаронинг шарафли бурчига айланаётганидан далолат беради.

Сана муносабати билан тумanning 29-сонли Янгиобод маданият марказида ташкил этилган байрам тадбирида туман Ҳоқимининг ўринбосарлари, ҳарбий қисм вакиллари, корхона ва ташкилот раҳбарлари, нуру-



нийлар, ёшлар ҳамда кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этдилар. Тадбирда сўзга чиққан туман Ҳоқими ўринбосари Ф.Раҳмонов барчани байрам билан сэмимий табриклаб, Ватан тинчлиги, юрт осойишталиги йўлида хизмат қилаётган ҳарбий хизматчиларга миннатдорчилик билдирди ҳамда уларга мустаҳкам

соғлиқ ва хизмат фаолиятларида улкан муваффақиятлар тилади.

Байрам тадбири давомида ўқувчи ёшлар томонидан тайёрланган сахна кўринишлари, махсус видеороликлар ҳамда ҳарбий чиқишлар намойиш этилиб, йиғилганларга байрамона кайфият ва кўтаринки руҳ бағишлади.

Муносабат

## Ижтимоий фаоллик ва жамият ривожини сари

Президент Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида барча соҳаларга тўхталиб, ҳар бирининг ривожини танқидий-тахлилий фикр билдирди, ечимларини аниқ белгилаб берди. Хусусан, таълим ва илм-фан соҳаларида эришаётган катта ютуқлар ҳақида тўхталиб, «Ўқувчи ва талабаларимиз жорий йилда халқаро фан олимпиадаларида 51 та олтин, 101 та кумуш, 126 та бронза медалини қўлга киритиб, ўз билим ва салоҳиятини бутун дунёга намойиш қилди», дея алоҳида мамнуният билан таъкидлади.

Бу рақамлар ўз-ўзидан ёки бир кунда бўлиб қолган эмас. Бунинг ортида таълим тизими мутасаддиларининг қатор лойиҳа ва ташаббуслари, ота-оналар ва мактаб ўртасидаги амалий ҳамкорлик ҳамда ўқувчининг илм-фанга бўлган қизиқишини уйғотиш йўлидаги ҳаракатлар ётади.

Биз яқингача фақатгина спортдаги медаль ва натижаларимиз билан мактанар эдик. Таълим ва илм-фанга эса авваллари 15-20 йил давомида эришилмаган натижаларга бугун керак бўлса, бир йилда эришмоқдамиз. Дунё бўйлаб юксак мукофотларни қўлга киритган мактаб ўқувчилари ва талабаларни кунора ОАВ ҳамда ижтимоий тармоқлар орқали кўрмоқдамиз. Бундай натижалардан

Президентимиз «Ёшларимизга қараб, улар эришаётган ютуқларни кўриб, кўксимиз тоғдек кўтарилди, қандай улкан бунёдкор куч сафимизга қўшилиётганидан гурурланиб кетамиз», дея таъкидлашида аини ҳақиқат мужассам.

Мурожаатномада билдирилган ташаббуслар ичида «2026 йилда юртимизда илк бор мактаб ўқувчилари ўртасида нуфузли халқаро кимё ва информатика олимпиадалари, Шанхай ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатлар талабалари ўртасида муҳандислик йўналишларида, Туркий давлатлар техникум ўқувчилари ўртасида кимё йўналишларида халқаро олимпиада ўтказилади», деган сўзлар соҳа ходимларига яна бир бор масъулият юклади. Таълим ва

илм-фан соҳасида бундай нуфузли тадбирларнинг Ватанимизда ўтказилиши амалда ривожланаётган давлатга айланаётганимиздан далолат.

Президентнинг «Ҳозирги глобал иқтисодиётда рақобатга чиқмади бўлиш учун малакали касб эгалари ва мутахассислар, замонавий технологиялар ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини унутмаслик лозим» деган сўзлари ортида ҳам ҳақиқат бор. Бундан бевосита таълим ва илм-фан ривожига йўналтирилаётган маблағларнинг ортаётганини, келажақдаги эътибор янада юқори бўлишини тушунишимиз мумкин.

Хулоса сифатида айтадиган бўлсак, соҳаларда бўлаётган каттагина ўзгаришлар, коррупцияга қарши кескин курашлар, таълим тизими ва илм-фан соҳасидаги йўналишларидаги маблағларнинг ортаётганини, келажақдаги эътибор янада юқори бўлишини тушунишимиз мумкин.

**Завқибек МАХМУДОВ, Абдулла Авлоний номидики педагогик маҳорат миллий институти доценти.**

## Фаровон келажакнинг муҳим омили

сон ва демографик кўрсаткичлари, балки республикамиз иқтисодиётининг устувор йўналиши бўлган қишлоқ хўжалиги соҳаси ҳам тўлиқ хатловдан ўтказилди.

Бу жараён бизга нима беради? Аҳолини рўйхатга олиш натижасида ҳудудларда кимлар яшаши, уларнинг ёши, жинси ва таълим даражаси ҳақида аниқ рақамлар пайдо бўлади. Бу маълумотлар келгуси 10–20 йил ичида қаерда янги боғча, мактаб ёки шифохона қуриш зарурлигини, қайси ҳудудларда янги иш ўринларига эҳтиёж юқорилигини аниқлашда асосий қўлланма

бўлади.

Қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш орқали ер ресурслари, экин майдонлари, боғлар ва чорва молларининг бош сони бўйича шаффоф база яратилади. Бу эса ички бозорда нарх-наво барқарорлигини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини тўғри баҳолаш имконини беради.

Бу сафарги жараёнларда замонавий ахборот технологиялари ва планшетлардан кенг фойдаланиш кўзда тутилган. Бу инсон омилини камайтириб, маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва тезкорлигини таъминлайди.

Кўпчиликини ўйлантирадиган муҳим жиҳат – шахсий

маълумотларнинг хавфсизлигидир. Таъкидлаш жоизки, рўйхатга олиш жараёнида олинган барча маълумотлар қанчалик равишда шахсий сир сақланади ва улардан фақат умуллаштирилган статистик мақсадларда фойдаланилади.

2026 йилнинг 15 январидан бошланадиган бу муҳим тадбирда фаол иштирок этиш — ҳар бир фуқаронинг ўз келажакига ва фарзандлари фаровонлигига қўшган ҳиссасидир. Зеро, аниқ рақамлар — тўғри қарорлар ва фаровон турмуш асосидир.

**Зафар КОДИРОВ, туман статистика бўлими бошлиғи.**

**2026**

AHOLI VA QIHLQOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISH

Birga ro'yaxatdan o'tamiz — Birga kelajakni quramiz!

**2026-yil** 15-yanvardan 28-fevralgacha

Бугунги кунда ҳар қандай давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини аниқ статистик маълумотларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу муносабат билан Ўзбекистонда ўтказилиши режалаштирилган аҳоли ва қишлоқ хўжалиги-

ни рўйхатга олиш тадбирлари мамлакатимиз учун тарихий аҳамиятга эга жараён.

Рўйхатга олишнинг асосий босқичи 2026 йилнинг 15 январидан 28 февралгача қадар давом этади. Бу давр аҳоли ва қишлоқ хўжалиги-



# Ватан ҳимоячилари ҳаётидан

## БУРЧГА САДОҚАТ

**Ватани ҳимоя қилиш, уни асраш ҳар бир фуқаронинг инсонийлик бурчи. Тугилиб ўсган табарруқ тупроғимиз ҳар биримизга азиз ва муқаддасдир. Шундай экан, унга хизмат қилиш, кўз қарочиғидек асраб-авайлаш, хавфсизлигини таъминлаш ҳам фахр, ҳам ифтихордир.**

Азал-азалдан оилада ўғил бола дунёга келса, кекса пиру бадавлат отахону она-жонларимиз яна бир юрт посбони туғилди, дея қалблари қувончга тўлишган. Бу урф-одатлар, анъаналар албатта, ўзбек халқига хос фазилятдир. Улар гўдакни ёшлигиданок, кўркмас, бо-тир қилиб тарбиялаш масаласига жиддий эътибор қаратишган. Вақти келиб улғайиб қамолотга тўлган, эл қорига ярайдиган ўғлон бўлиб, алп қомат эркакка хос шижоат билан кўкси қалқон йигитнинг Ватанга, она халқига Президентига бўлган садоқатини ҳарбий қасамд қабул қилганини кўрганда, ҳар бир ота-она қалби қувончга тўлиб, кўнгли тоғдек кўтарилади. Ўғлининг эл қорига ярайдиган бўлганидан кўзида севинч ва шукроналик ёшлари қалқийди.

Дарҳақиқат, эр йигит – эл фарзанди. У Ватанга тиргак, элига қалқон. Улар туфайли халқимиз ҳаёти тинч ва осойишта. Турмушимиз фаровон. Ана шундай залворлик юкни елкасида кўтарётган йигитларимиз, ватанимиз, халқимиз тинчлиги, осойишталиги йўлида ўз ҳарбий қасамдларига содиқ ҳолда хизмат бурчларини олиб боришмоқда. Ватанимиз ҳудудий яхлитлигини ва сарҳадларимиз дахлсизлигини таъминлашда кўшаётган муносиб хиссалари, жанговар хизмат фаолиятида ижобий натижаларга эришадиганлиги, Ўзбекистон Республикаси чекараларини қўриқлаш ва ҳимоя қилиш вазифаларини бажаришдаги фидокорлиги ва мардлиги Юртбошимизнинг ҳамда ДХХ раҳбариятининг эътиборидан четда қолаётгани йўқ.

Кўйида биз ҳикоя қилмоқчи бўлган лавҳамиз қҳрамони III даражали сержант Шохруҳ Бердикулов ҳам ана шундай юрт ўғлонларидан бири. Шохруҳ Бердикулов Жиззах вилояти Галлаорол туманидаги “Кориз-қудуқ” мавзусида тугилган. Ушундан катта бўлсам албатта, мен ҳам ҳарбий бўламан дердим. Яхши ният, ярим мол деганларидек, мана орзумига етдим. Уйдагиларим –

оиласининг тўнғич фарзанди бўлган Шохруҳжон тумандаги 6-ўрта мактабнинг 9-синфини 2011 йилда аъло баҳоларда тугатган. Жиззах олимпиада захиралари қоллежга ўқишга кирди. Мазкур илм даргоҳини муваффақиятли битиргач, тенгқур дўстлари қатори у ҳам Галлаорол тумани мудофаа ишлари бўлими томонидан ҳарбий хизматга қақирилди. Йигитлик бурчини Наманган вилоятида жойлашган Ўзбекистон Республикаси Давлат Хавфсизлик хизмати Чегара қўшинларига қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида ўтади. Ҳарбийлик касбига иштиёқманд бўлган ёш йигитни Ватан ҳимоячиси бўлишдек орзу сира тарк этмади. Муддатли ҳарбий хизматни ўтагач, ўзи хизмат қилган ҳарбий қисмда шартнома асосида ишга қолди.

Ҳарбийлик ҳаёти, қолаверса, устозларнинг панду-насиҳатлари уни ҳаммиша олға интилишга қорлади. Шахсий таркиб орасида ўз хурмат-эътиборига эга инсон сифатида шаклланди. 2023 йилда юқори кўмондонлик топшириғига биноан III даражали сержант Шохруҳ Бердикулов ДХХ Чегара қўшинларига қарашли “Н” ҳарбий қисмга иш фаолиятини давом эттириш учун юборилди. Бугунда у зиммасига юклатилган вазифани виждонан бажариб келмоқда. Бўйи-баста келишган, норғул, ҳарбийларга хос шижоат юз-кўзида актиб турган буй йигит ҳарбий қисмда ва хизматдош дўстлари орасида ўз хурматига, обрў-эътиборига сазовор.

Бизнинг оиламизда ҳарбийлар бўлмаган. Бироқ мен ёшлиқдан ҳарбий бўлишни орзу қилганман. Негаки, ҳарбийларнинг эғнидаги чиройли либосини кўрганимда, уларга нисбатан ҳавасим яна ҳам ортарди. Чунки, ҳарбий либос кўркам бўлишлик билан бир қаторда, одамга қандайдир куч бағишлайди. Ушундан катта бўлсам албатта, мен ҳам ҳарбий бўламан дердим. Яхши ният, ярим мол деганларидек, мана орзумига етдим. Уйдагиларим –

дадажоним Фурқат ака, онажоним Шохиста опа, укаларим, синглимнинг хурсанд-чилигини айтмайсизми? Инсон яхши ният ва улғувор мақсадларни кўзлаб интилса, изланса, ҳаракат қилса, албатта, муродига етар экан. Мактабда ва қоллежда ўқиб юрган кезларимда спортнинг оғир атлетика тўғарагига қатнашардим. Кучли ва бақувват бўлиш учун. Чунки ҳарбийлар гавдали ва кучли бўлиши керак. Болалик орзуларим ушалди, рўёбга қикди, -дейди сўхбатдошимиз.

Ҳа, инсон нимани орзу қилса, ниятига етиши шубҳасиз. Аммо бунинг учун излаши, интилиши, илм сирларини пухта эгаллаши лозим. Шундагина мақсадига эришмоғи аниқ. Шохруҳ Бердикулов ҳам доимо изланади, интилади. Билмаганларини устозларидан сўраб ўрганади. Бўш вақт топди дегунча, ҳарбий қисм кутубхонасига ошиқади. Мамлакатимизда ва жаҳонда рўй бераётган воқеа ва ҳодисалардан воқиф бўлишга ҳаракат қилади. Устозлари ҳақида илиқ фикрларни айтади.

-Биринчи устозим, аввало отам. Мактабга борган кезларимда қўлимга илк бора қалам тутқазиб, бийрон тилларимда “Она”, “Ватан” деган сўзларни мурғак қалбимга муҳрлаган инсонлар Шакарбой Нахалов, Шерали Муҳаммадиевлардир. Қоллежда ўқиб юрган кезларимдаги устозим Зафар Аввалбоевнинг хизмати катта. У кишининг кўрсатмаларига доимо амал қилганман боис турли спорт мусобақаларида фаол иштирок этиб, спортнинг оғир атлетика йўналиши бўйича бир неча бор “Ўзбекистон кубоги” мусобақаларида фахрли 1-ўринларни олганман. Ҳарбий соҳадаги устозларим эса, ҳарбийликнинг жанговар сир-синоатларини, билим ва кўникмаларини мукамал ўргатишди. Подполковник М.Мираҳмедов, катта сержант Темур Авазов, сержант Уткир Нурматов, сержант Отабек Азимовларни ҳақиқий устозларим деб биламан. Бугун нимаики ютуқларга эришган бўлсам, бунда уларнинг фидойи хизматлари мужассам, -дея фахр билан сўзлади Шохруҳбек. Шунга алоҳида таъкидлаш

жоизки, Шохруҳбекнинг укаси Шохбек Бердикулов ҳам Наманган вилояти ДХХ Чегара қўшинларига қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида контракт асосида хизмат қилади. Бу каби ҳарбийлар оиласидан ҳар қанча фахрланса арзийди. Қаҳрамонимиз III даражали сержант Шохруҳ Бердикулов юртимиз сарҳадларини муносиб қўриқлашдаги мардонавор хизматлари учун юқори кўмондонлик томонидан муносиб тақдирланиб келинади.

-Ушбу рағбатлантирувчи мукофотларни олаётган вақтдаги ҳис-ҳаяжонни таърифлашга тил ожиз. Бунинг эшитган уйдагиларимнинг қувончини айтмайсизми?! Бу мукофот нафақат меники, қолаверса, мен билан бир сафда она Ватан сарҳадларини кеча-ю кундуз ҳимоя қилиб, халқимиз осойишталигини таъминлаётган мард ва жасур ўғлонларимизнинг ҳам ютуғидир. Улар билан аҳил-иноқликда давлат чегараларини қўриқлашмиз. Давлатимиз томонидан биз, ҳарбийлар учун барча шарт-шароитлар яратиб берилган. Уй-жойлар билан таъминланганмиз. Оиламиз билан биргамиз, -дейди III даражали сержант Ш.Бердикулов.

Ҳа, кўнгли хотиржамлиги ишга унум ва барака бағишлайди. Анваржоннинг кўнгли хотиржамлиги ҳам айнан шундай. Севимли рафиқаси Дурдона Абдумаликова билан турмуш қилгандан буён улар бир-бирларига суянч ва таянч.

-Мен ҳарбий инсонга турмушга чиққанымдан асло афсусланмайман, -дейди турмуш ўртоғи Дурдона. -Чунки, юрт посбонининг рафиқаси бўлиш мен учун шараф. Яширмайман, баъзида дугоналарим ҳам менга ҳавас билан қарашади. Ушундан кезларда ич-ичимдан қувонаман. Турмуш ўртоғим билан 2 нафар шириндан-шаркар фарзандларимиз – Хадичабону ва Эъзозахонларни эл қорига ярайдиган қомил инсонлар қилиб тарбиялаб, аҳил-иноқликда яшаймиз. Юртимизнинг тинчлиги, халқимизнинг фаровон ҳаёти мана шундай забардаст жасур ҳимоячиларимиз қўлида экан, дорулам кунларнинг қадрига етиб яшаймиз, -дейди Дурдонахон фахр билан.

Ҳақиқатан, Ватан ҳимоячиси юртимиз, миллатимиз ғурури, ифтихоридир. Қаҳрамонимиз Шохруҳ Бердикулов ҳам юрт учун жон қўйдираётган мард ўғлонлардан биридир.

Мехринур, Муҳаммадали ҳамда Билолбек исмли фарзандларини оқ ювиб, оқ тараб вояга етказиб келмоқда. -Ҳисобчилик соҳасига қизиқишим, очигини айтсам, болаликдан бошланган.

Менга берган топшириқларни ҳалол ва виждонан бажаришга ҳаракат қиламан. Ишонч бу – барака, муваффақият гароводир. Ҳа, инсон ўзи севган кас-



## Тинчлигимиз посбонлари

**Кўхитанг тоғлари чўққисига аллақачон қор тушган. Тунда эсаётган изгирин совуқ ҳам бунинг исботи. Пуриквор тоғ этакларида жойлашган Хомкон қишлоғи аҳолиси эса тоғ об-ҳавосининг бундай инжиқликларига кўникиб кетишган. Шу боис бу ернинг ажиб иклими-ю, мафтункор табияти вилоятимизнинг бошқа ҳудудларидан кескин фарқ қилади. Ана шу тоғ ён-бағрларида жойлашган қишлоқларда яшаб умргузаронлик қилаётган маҳаллий аҳолининг асосий юмуши чорвачилик.**

Азим тоғлар бағридан сизиб чиқаётган кўплаб шифобахш булоқлар эса нафақат одамларга, қолаверса, деҳқончилик ва чорвачиликка тириклик ато этади. Маҳаллий аҳоли бундан баҳраманд бўлиб, халқимиз дастурхонига чорвачилик маҳсулотлари етказиб бериб, маъмуриликка ўз хиссаларини қўшиб келишади. Ушбу сўлим ва гўзал масканда истиқомат қилаётган одамлар ҳаммиша интилишда ва изланади. Юрт иши билан ёниб яшашга ҳаракат қилади.

Овуллари тарқоқ жойлашган бу гўша аҳлини Хомкон ва Узунсой қишлоқ фуқаролар йиғини бирлаштиради. Мазкур ҳудудда чегарачиларимиз юрт тинчлиги, сарҳадларимиз осойишталигини таъминлаш йўлида куну-тун хизмат вазифаларини аъло даражада бажаришади.

-Ҳарбий қисм раҳбарияти ҳар доим огоҳлик ва хушёрлик-

ка жиддий эътибор қаратади. Айниқса, маҳалла, мактаб ва ҳамкор ташкилот вакиллари билан ўзаро ҳамфикрликда иш олиб бориш режаси йўлга қўйилган. Шу боис ойига тегишли мутасадди ташкилот ходимлари, маҳалла фуқаролар йиғини раислари ҳамда маҳаллий аҳоли, хусусан, оқсоқоллар, мактаб ўқитувчилари ва ўқувчилари билан биргаликда тадбирлар уюштирилади. Унда Ўзбекистон Республикаси “Давлат чегараси тўғрисида”ги Қонуннинг мазмун-моҳияти ҳақида кенг тушунчалар бериб борилади. Шунингдек, ноқонуний хатти-ҳаракатларни сезганда ёки бегона шахсларни кўрганда дарҳол чегарачиларга хабар беришлари хусусида сўз юритилади. Негаки, армия ва халқ яқдил деган шиорга ҳаммиша амал қилмоғимиз лозим. Дарвоқе, қишлоқ аҳли бир-бирини яхши танийди. Тўй-ю томошаси, яхши ёмон

## «Армия ва халқ бир тану бир jon»

**bu g'oyaning amaldagi ko'rinishi bugungi kundagi Chegara qo'shinlari faoliyati misolida**

Har qanday davlatning osoyishtaigi va mustahkamligi, avvalo, uning chegaralarining ishonchli qo'riqlanishiga bog'liq. Chegara – bu shunchaki chizilgan chiziq emas, balki yurtning sha'ni, mustaqilligi va hududiy daxlsizligini belgilovchi eng muhim ramzdir.

Chegara qo'shinlarining harbiy xizmatchilari asosan mamlakatning eng olis, ta'bir joiz bo'lsa, eng chekka va eng mas'uliyatli hududlarida xizmat qiladi. Shuning uchun ham chegarachilarimizning kundalik xizmat faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning xalq bilan bo'lgan yaqin hamkorligiga bog'liq. Chegara hududida yashovchi aholi o'z yashash joyining xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlik hissinl anglagan holda chegarachilarga ko'mak ko'rsatishi, hamjihatlik ruhida yordami xizmat samaradorligini oshiradi, albatta.

O'z navbatida, chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari ham har bir fuqaroga murojaat qilganda mehr, madaniyat va hurmat bilan yondashadi. Bu o'zaro ishonch natijasida armiya bilan xalq orasida tabiiy tarzda mustahkam ko'prikl paydo bo'ladi.

Bugungi kunda Davlat chegarasi yaqinida yashovchi aholi vakillari hamda ta'lim muassasalarida tahsil olayotga o'quvchi yoshlar bilan turli ko'rinishdagi uchrashuvlar,



davra suhbatlari va profilaktik tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Chegara hududlarida o'tkazilayotgan bu kabi profilaktik uchrashuvlar, yurt tinchligi haqida ma'rifiy suhbatlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi tadbirlar ham xalq va armiya o'rtasidagi birlikni yanada mustahkamlamoqda. Yana shunisi ahamiyatliki, bu kabi o'tkazilayotgan tadbirlar yosh avlodga chegara qo'shinlarining qudrati hamda bugungi kunda chegarachilarga yaratib berilayotgan sharoitlar bilan bevosita tanishish imkonini bermoqda.

Bu esa o'z navbatida yoshlarni kelajakda harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bugun har bir yurdoshimiz chegarani qo'riqlayotgan yigitlarga

ishonch va havas bilan qaraydi, har bir chegarachi esa o'z ortida butun xalq turganini his qiladi. Ana shu ruh – yurtning asosiy kuchi, yengilmas qalqonidir. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda chegara qo'shinlari faoliyati bir narsani yaqqol ko'rsatib turibdi: xalq va armiya bir-biridan ajralmas kuchdir. Xalqning ishonchi armiyani quvvatlaydi, armiyaning matonati esa xalq tinchligini kafolatlaydi. Shu bois “Armiya va xalq – bir tanu bir jon” degan g'oya buguz'unchi kuchlarga qarshi eng katta ma'naviy tayanch, tinchlik va barqarorlikning eng muhim kafolati bo'lib qolaveradi.

**Katta leytenant Azamatjon SUNATILLAYEV, DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi.**

**–Касбнинг орқасидан ҳалол ризқ топиш рўзгоринга барака олиб киради. Катта жамоада меҳнат қилиб, раҳбарият олдида, қолаверса, касбдошларинг орасида хурмат қозониш янада залворлироқ вазифа, – дейди лавҳамиз қаҳрамони Рамазон Отамуродов.**

Ёш бўлса-да, каттагина ҳаёт ва меҳнат тажрибасига эга бўлган мустақиллик тенгдоши Рамазон Отамуродов 1991 йил 18 мартда Шеробод туманида туғилган. Навқирон болалик йиллари сўлим “Кўктош” қишлоғида кечган. Тумандаги 41-умумий ўрта таълим мактабининг аъло баҳоларга битириб, қўшни Музработ туманидаги ижтимоий-иқтисодий касб-хунар коллежида молия йўналишида таҳсил олди. Ўқиб юрган кезларидан ҳам тенгқур ўртоқларидан алоҳида ажрალიб турарди. Билимга чанқоқ бу йигит доимо қалбини китобга ошно қилди. Билмаганларини устозларидан сўраб, пухта ўрганди. Отаси Хусан ака, онаси Гулдаста опанинг оқ дуосини олиб вояга етган оиланинг тўнғич фарзанди Рамазон йиллар, даврлар

## «Касбим — фахрим менинг»

силсиласида тобланиб қадим топди.

Куч-ғайрат йигитлик ғурури тўлиб тошган Р.Отамуродов билим маскани устоз ва мураббийларидан пухта ўрганган илм сирларини амалиётга жорий этиш ниятида 2015 йил Музработ туманида жойлашган ДХХ Чегара қўшинларига қарашли “Н” ҳарбий қисмга ҳисобчи лавозимига ишга кирди. Ҳарбий қисмда ўзига бириктирилган масъул вазифада ишлаб жамоа орасида ўз хурмат-эътиборига сазовор бўлди. Бу орада оила аталмиш муқаддас даргоҳга қадам ташлаш ниятида ўзига муносиб ёр налади. Дилобар Жомғирова билан турмуш йўлларини чамбарчас боғлади. Эндиликда 3 нафар

Отам собиқ иттифок даврида совхоз ва колхозларда ҳисобчи бўлиб ишлаган. Шу боис ҳисоб-китоб ишларини уйга олиб келиб бажарарди. Ёнларига ўтириб олиб, “санок чўт” соққаларини бармоқларида шақирлатиб бу ёқдан у ёққа ташлашларини кўриб завқланиб ўтирардим. Катта бўлсам, албатта, мен ҳам “бухгалтер” бўламан дердим. Улғайганим сари ёшлиқдаги бу истак янада кенг қулоч ёйди. Коллежни тамомлаб, ўзим ёқтирган касбга меҳр қўйдим. Шукурким, кам бўлганим йўқ. Ҳаммаси изланиш ва интилишга боғлиқ экан, –дейди ҳарбий қисм хизматчиси, ҳисобчи Рама-

зон Отамуродов. –Менга берган топшириқларни ҳалол ва виждонан бажаришга ҳаракат қиламан. Ишонч бу – барака, муваффақият гароводир. Ҳа, инсон ўзи севган кас-

**Туркум материалларни ДХХ Чегара қўшинлари хизматчиси Сайдулла ШОБЕРДИЕВ тайёрлади.**



Қонуи кучга кирди

## Давлат бюджетидан ижтимоий ҳимояга ажратилган маблағларнинг манзиллилиги таъминланади

(Бошланиши 1-бетда.)

Бундан ташқари, ижтимоий хизматлар ва ёрдам кўрсатишда қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартиб-таомилларни бузганлик, шунингдек, ижтимоий ҳимоя органлари ҳодимларининг қонуний фаолиятига тўсқинлик қилганлик, уларнинг қонунчилик ҳужжатларида белгиланган талабларини бажармаганлик учун жавобгарликни белгилаш зарурияти юзага келди. Мазкур масалаларни ҳал этиш мақсадида қабул қилинган янги қонун билан қатор қонунларга қўшимчалар ва ўзгаришлар киритилди. Жумладан, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда шаҳарсозлик ҳужжатларига уларда ногиронлиги бўлган шахсларга шарт-шароитлар яратиш бўйича лойиҳанинг алоҳида бўлими (қисми) мавжуд бўлмаган ҳолда ёки шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига мувофиқ бўлмаган ушбу алоҳида бўлим (қисм) бўйича эксперт ташкилотлар томонидан ижобий хулоса берганлик учун жавобгарлик белгиланди.

Шаҳарсозлик ҳужжатларида ногиронлиги бўлган шахсларга шарт-шароитлар яратиш бўйича лойиҳанинг алоҳида бўлими (қисми)га амал қилинмаган ҳолда қурилиши тугалланган бинолар ва иншоотлардан фой-

даланиш учун гурилиши ва уй-жай коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси органлари томонидан рухсатнома берганлик учун ҳам жавобгарлик белгиланди. Ижтимоий хизматлар ва ёрдам кўрсатиш соҳасидаги қонунчилик бузганлик ҳамда қонунчилик имтиёзлар ва ижтимоий кафолатларни таъминламаганлик учун жавобгарлик белгиланди.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс 198-8-модда билан тўлдирилиб, унда Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги ва унинг тартиб-таомилларидаги идоралар ҳодимларининг қонуний фаолиятига тўсқинлик қилиш, шунингдек, уларнинг қонунчилик ҳужжатларида белгиланган талабларини бажармаганлик учун маъмурий жавобгарлик назарда тутилди.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг отана қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштиришда қонунчилик талабларини бузиш, васийлик ҳуқуқини суиистеъмол қилиш, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисидаги қонунчиликни бузиш, ногиронлиги бўлган шахсларга қулай шарт-шароитлар яратиш билан боғлиқ лицензиялаш тўғрисидаги қонунчилик ва рухсат бе-

ри тартиб-таомиллари тўғрисидаги қонунчиликни бузишда ифодаланган маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ваколати жиноят ишлари бўйича судлардан Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги ҳузуридаги Ижтимоий инспекцияга ўтказилди. "Фуқаролар соғлигини сақлаш тўғрисида", "Банк сири тўғрисида", "Нотариат тўғрисида", "Қимматли қозғоқлар бозори тўғрисида", "Кредит ахбороти алмашинуви тўғрисида"ги қонунларга Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигига ижтимоий хизматлар ва ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ ҳолатларда шифокор сири, банк сирини ташкил этадиган, нота-риал ҳаракатлар, қимматли қозғоқлар ҳамда кредит тарихи тўғрисидаги маълумотларни тегишли сўров ёки аризага асосан берилишини назарда туғуви тегишли қўшимча ва ўзгаришлар киритилди.

Ижтимоий ҳимоя ягона реестрига ёки Камбағал оилалар реестрига киририлган оилалар аъзолари қонунчиликда белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказилган ҳимойлик ташкилотлари томонидан солиқ даври мобайнида базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваригача миқдорда тўғридан-тўғри бериладиган пул маблағла-

ри тартиб-таомиллари хайриялари учун эндиликда солиқ солинмайди. Ногиронлиги бўлган шахслар, фахрийлар, хотин-қизлар ҳамда болалар жамоат бирлашмаларини давлат рўйхатидан ўтказиш учун давлат божи белгиланган ставканинг 50 фоизи миқдорда ундирилади.

Қонун ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламининг турмуш даражаси яхшила-ниши, уларга жамият ва давлат ҳаётида тўлақонли иштирок этиши учун зарур шарт-шароитлар яратиши ҳамда уларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини мустақил равишда таъминлаш имкониятлари кенгайтиришга имконият қилади. Ижтимоий ёрдам ва хизматлар кўрсатишда уларга тааллуқли бўлган маълумотларни ўрганиш орқали давлат бюджетидан ижтимоий ҳимояга ажратилган маблағларнинг манзиллилиги таъминланади.

Эслаб ўтамиз, қонун 2025 йил 17 декабрдан қучга кирди. Фақат қонуннинг 1, 11-моддалари уч ойдан кейин қучга киради. Қонуннинг 8-моддаси қоидалари 2025 йил 1 январдан юзага келган муносабатларга ҳам татбиқ этилади.

ЎЗА МУХБИРИ  
НОРГУЛ  
АБДУРАИМОВА  
ёзиб олди.



Қирқ йoshдан кейин

Inson umrining 40 yillik bosqichi – bu hayotdagi bir burilish nuqtasi. Ruh yetiladi, tajriba to'planadi, lekin tanada ba'zi o'zgarishlar boshlanadi. Aynan shu davrda yurak salomatligiga e'tibor qaratish – eng muhim vazifalardan biriga aylanadi.

## Hayotning ikkinchi bahori yurakdan boshlanadi

Yurak bizga bir umr xizmat qiladi. Ammo 40 yoshdan keyin uning "toki" sekin-asta susayga boshlaydi. Uning har bir urishi endi ko'proq g'amxo'rlik, sokinlik va ehtiyotkorlik talab qiladi. Shuning uchun, yuragingizni asrang!

**Nega aynan 40 yoshdan keyin e'tibor zarur?**

Qirq yoshdan oshganda organizmda tabiiy o'zgarishlar boshlanadi: qon tomirlari elastikligini yo'qota boshlaydi; xolesterin darajasi oshadi; qon bosimi beqaror bo'ladi; yurak mushaklari kuchini yo'qota boshlaydi; stress, uyqusizlik va semizlik holatlari ko'payadi.

Bu o'zgarishlar yurakka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu yoshda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortadi. Biroq eng quvonarlisi – buni oldini olish mumkin!

**Yurakning "jimjit" ogohlantirishlari**

Qirq yoshdan keyin quyidagi alomatlar yuzaga kelsa, bu yurakning sizga yuborayotgan xabari bo'lishi mumkin: ko'krak sohasida bosim yoki og'riq; nafas qisishi, zinapoyadan chiqishda charchash; uyquda yurak urishining tezlashishi;

qo'l, yelkada og'riq yoki uvishish; tez-tez bosh aylanishi yoki hushsizlik.

Bu belgilarni jiddiy qabul qilish kerak. "O'tkinchi holat" deb o'ylamang – yurak og'risa, u sizdan yordam so'rayapti.

**Yurakni asrashning o'rta oltin qoidasi**

Qirq yoshdan oshgach, yurakni har tong yangidan sog'lomlashtirish mumkin. Quyidagi oddiy, ammo samarali tavsiyalar yuragingizni uzoq yillar bardavom qiladi:

1. Harakatdan to'xtamang. Har kuni piyoda yurish, yengil jismoniy mashqlar yurakni chinigtiradi.

2. Ovqatlanishga e'tibor bering. Yog'li, qovurilgan, tuzli ovqatlarni cheklang. Meva, sabzavot, yong'oqlar, baliq – yurakning eng yaxshi do'stlari.

3. Qon bosimini nazorat qiling. Har oyda o'lchab boring. Qon bosimi 120/80 mmHg atrofida bo'lishi ideal hisoblanadi.

4. Qon tahlillarini muntazam tekshiring. Xolesterin, qand darajasi va yurak faoliyati ko'rsatkichlari muhim.

5. Chekish va alkogoldan voz keching. Ular qon tomirlarining eng yomon dushmanidir.

6. Ortiqcha vazndan saqlanmang. Har 1 kilogramm ortiqcha vazn – yurakka ortiqcha yuk demakdir.

«Xavfsiz xonadon oyligi»

## Faol qatnashaylik

Yurtimizda aholi xonadonlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi qoidalari rivoj qilib yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli buyrug'iga asosan "Yanvar oyi-Xavfsiz xonadon oyligi" deb e'lon qilindi.

Ushbu oylik doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi shahar va tuman favqulodda vaziyatlar bo'limlari xodimlari tomonidan ko'p qavatli uylarda

va ulardagi xonadonlarda, yakka tartibdagi uy-joyda yashovchi aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini amalga oshirilmoqda. O'tkazilayotgan har bir profilaktik tushuntirish ishlari davomida xonadonlarda elektr toki va gazdan to'g'ri foydalanish holatlari ko'zdan kechirilib aniqlangan yong'inga qarshi kamchiliklarni bartaraf qilinishiga erishilmoqda. Har bir fuqaro o'z turar joyida yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun mas'uldir.

## Raqamli dunyoda bola tarbiyasi

Bugungi kunda dunyoda texnologiyalar mislsiz tezlikda rivojlanmoqda. Internet esa nafaqat kattalarning, balki yosh avlodning ham hayotiga chuqur kirib kelgan. Hozirgi kunda Muzrabot tumanidagi deyarli har bir xonadonda smartfon, planshet yoki kompyuter bor. Bolalarning maktabdagi ta'limdan tortib bo'sh vaqtigacha ko'plab jarayonlar internet bilan bog'liq. Bu esa ota-onalar oldiga yangi mas'uliyat – farzandning raqamli xavfsizligini ta'minlash vazifasini qo'yadi.

## Internet madaniyati va ota-onaning roli

### Internet imkoniyat ham, xavf ham

Internet – bilimlar ombori. To'g'ri yo'naltirilsa, u bolalar uchun: darslarda foydalanish; foydali video va loyihalarni orqali o'rganish; dasturlash, dizayn, robototexnika kabi zamonaviy ko'nikmalarni o'zlashtirish; dunyo bilan tanishish va tafakkurni kengaytirish imkonini beradi.

Ammo nazoratsiz Internet: begona odamlar bilan tanishuv; yolg'on va zararli kontentga duch kelish; vaqtni behuda sarflash; o'yinlarga qaramlik; shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi kabi xavflarni ham keltirib chiqaradi.

Shu bois raqamli dunyoda farzandni yolg'iz qoldirmaslik – ota-ona uchun eng muhim vazifalardan biridir.

### Bolani Internetga emas, Internet madaniyatiga o'rgatish

Ko'plab ota-onalar bolani ko'zdan qochirmaslik uchun telefon yoki planshetdan foydalanishga ruxsat bershadi. Ammo asosiysi – to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

### 1. Ishitirok eting, taqtiqlamang

Bola telefon bilan nima qilayotganini doimiy nazorat qilish yaxshi, ammo u har doim kuzatuv ostida ekanini his qilmasligi kerak. Taqtiqlash emas, o'rgatish – eng yaxshi yo'l.

### 2. Yoshga mos kontent tanlab bering

Bolalar uchun: maxsus o'quv dasturlari; milliy va tarbiyaviy videolar; tajriba, ilm-fan, texnologiyaga oid ko'rsatuvlar katta foyda beradi.

### 3. Ekran vaqtiga me'yor qo'ying

Mutaxassislar tavsiyasi: 6 yoshgacha: kuniga 30 daqiqadan oshmasin; 7–12 yosh: 1–1,5 soat; 13 yoshdan katta: 2 soatgacha.

Maktabdan kelgan bola avval uyga vazifalarini bajarsin, keyin ekran vaqti berish tavsiya etiladi.

### 4. Onlayn mulqot odobi – farzand tarbiyasining bir qismi

Mulqot madaniyatini o'rgatish shunchaki real hayot bilan cheklanmaydi. Bola Internetda ham: hurmat bilan gapirish; begona odamlarga ishonmaslik; shaxsiy ma'lumot bermaslik; bahsga aralashmaslik qoidalari bilishi shart.

### 5. Farzandga "yo'q" deyishni o'rgatish

Internetdagi zararli takliflar – o'yinlar, lotereyalar, sovg'a va mukofot va dasi bilan aldovlarga "yo'q" deya olish – bu bolaga beriladigan eng katta tarbiya.

### Ota-ona raqamli savodxon bo'lishi shart

Farzand internetda xavfsiz bo'lsin desak, oldin ota-ona o'zi ham raqamli madaniyatni bilishi kerak. Buning uchun ota-ona bilishi zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar:

telefon va kompyuterning xavfsizlik sozlamalarini yoqish; parollarni to'g'ri yaratish; google Family Link, YouTube Kids, Safe Mode kabi himoya xizmatlarini ishlatish;

bolaning kimlar bilan yozishayotganini bevosita emas, bilvosita – subhatlar orqali bilish; Soxta xabarlar, yolg'on yangiliklar, zararli sahifalarni farqlash.

Bugungi zamonda ota-onaning o'zi internetni yaxshi tushunmasa, bolaning himoyasi

Sharof OMONOV, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi kardiolog shifokori.

### Qadrli tumandoshlar!

Olib borilayotgan targ'ibot ishlarida faol qatnashish va Favqulodda vaziyatlar vazirligining xodimlari tavsiyalariga rioya qiling. O'z vaqtida bartaraf qilingan nuqsonlar orqali o'z uyigizni yong'inidan va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlardan xoli etgan bo'lasiz.

Kapitan X.MIRZAYEV, tuman FVB boshlig'i o'rinbosari, Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo'linmasi boshlig'i.

to'liq bo'lmaydi.

## Raqamli dunyoda ishonch – eng kuchli himoya

Bolaga qoidalarini o'rgatish bilan birga, ular bilan do'stona munosabatda bo'lish juda muhim. Bola Internetda ko'rgan yoki bilmagan narsasini ota-onasiga bemaol aytishi uchun ishonchli mulqot zarur. Aks holda bola:

ko'rgan zararli kontentni yashiradi; kimdir bilan tanishsa bu haqda gapirmaydi; muammo yuzaga kelsa ota-onaga emas, Internetga murojaat qiladi.

Shu bois har kuni 10–15 daqiqa bo'lsa ham farzandingiz bilan ochiq mulqot qiling.

## Muzrabotda raqamli tarbiya: mahalla va maktabning o'rni

Bugun tumanimizdagi maktablar, kutubxonalar, yoshlar markazlari ham IT sohasini o'qitishni kuchaytirmoqda. Lekin bolalarni internet xavflaridan himoya qilish – faqat maktab yoki davlatning emas, avvalo oilaning vazifasi.

Mahalla faollari, ustozlar va ota-onalarning hamkorligi orqali: onlayn firibgarliklar bo'yicha seminarlar;

bolalar uchun IT to'garaklari; ota-onalar uchun raqamli savodxonlik darslari yo'lga qo'yilsa, bu farzandlarimizga kelajagini yanada mustahkamlaydi.

## Xulosa o'rnida

Raqamli dunyo – farzandimizning kelajagi. Undan qochib bo'lmaydi, lekin to'g'ri boshqarish mumkin. Internet bolaga dushman emas. U maktab, do'st, ustoz, ensiklopediya, hatto ustaxona bo'lishi mumkin. Eng muhimi, biz – ota-onalar – farzandlarimizga Internetdan to'g'ri, xavfsiz va madaniyatli foydalanishni o'rgatishimiz kerak.

Farzand tarbiyasi – kelajak tarbiyasi. Raqamli avlodning kelajagi esa bugundan boshlanadi.

**Sherboy BOBONAZAROV, 17-maktabning oliy toifali informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi.**

**Bo'sh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarqa qarshi kurashish Departamenti faoliyatidan**

## Noqonuniy savdoning oldi olindi

Departamentning Denov tumani b'limi va boscha xukukni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida tuman-dagi Bуюk kelajak mahallasi hududida tezkor tadbir utkazildi.

Denov tumani 1987 yilda tug'ilgan shaxs shifokor rezepti asosida sotiladigan "GABATEN" (gabapentin 300 mg) nomli dori vositasini shifokor rezeptisiz 100 donasini 800 ming sumga sotgan vaqtda tezkor tadbir ish-tirokchilari tomondan ashevii dalillar bilan ushlangan. Mазkur xolat yuzasidan Uzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining teгишли moddalari bilan jinoyat ishi kuzgatilib, tergov harakatlari utkazilmokda.

**U.ЖАБBOPOB, Departamentning viloyat boshqarmasi katta inspektori.**

**Ж.МУРОДОВ, Departamentning viloyat boshqarmasi inspektori.**

## Кадастр ходими ушланди

Departamentning Узун tumani b'limi va ИИБ ходимлари hamkorligida utkazilgan tezkor tadbirda Davlat kadastrlar palatasi Узун tumani filiali ходими jinoyat ustida tumshugidan ilindi. U fuqaro A.P.ning tumandagi Mустақиллик mahallasidagi 10 sotih er maydonining kadastr hужжатlarini 500 AQSh dollari evaziga tayirlab berishini aytib, ushu pullar hisobidan 400 AQSh dollari va 1,2 million sumni olgan vaqtda ashevii dalillar bilan ushlangan.

Xolat yuzasidan Jinoyat kodeksining teгишли moddalari bilan jinoyat ishi kuzgatilib, tergov harakatlari olib borilmokda.

**Д.ЙУЛДОШЕВ, Ш.АБДУМУРОДОВ, Departamentning viloyat boshqarmasi katta inspektori.**

## Фирибгарлик ҳолати фoш этилди

Departamentning Jarqurgon tumani b'limi tomonidan хуқуқни муhofaza qiluvchi boscha organlar hamkorligida tashkil etilgan tezkor tadbir jараёнида fuqaro boscha bir fuqardonin xonadonida 1050 AQSh dollari evaziga "Худудга таъминот" AJ tuman filiali ходими орқали газ hisoblagich urnatishi va hisob-raqam ochib berishini vaъda qilgan. Kелишилgan pullar hisobidan 1000 AQSh dollari va 600 ming sumni olgan vaqtda хуқуқбузар ashevii dalillar bilan kulga olingan.

Фирибгар ustidan Jinoyat kodeksining teгишли moddalari bilan jinoyat ishi kuzgatilib, tergov harakatlari utkazilmokda.

**Ф.ИЗЗАЕВ, Departamentning viloyat boshqarmasi b'limi bosligi.**

**И.МАМАТМУРАТОВ, Departamentning viloyat boshqarmasi katta inspektori.**

## YEВTO'YMASNING FIG'ONI

O'zimni tanishtirsam, kamina ismi jismiga monand Yebto'ymas Boqimandayevich bo'laman. Aybga buyurmaysiz, tirikchilik deganday, ro'zg'or, yashash uchun kurash deganday, bizniki ham bir "kasb"da. A, labbay, qanday "kasb" deysizmi, shu-u-u davlatdan keladigan mo'may "daromad" yo'llarini axtaramanda.

Mana, qariyb olti oy bo'lyaptiki, topish-tutishimda maza yo'q, "biznes"im ham o'xshamayapti. Sababi nima, nima sababdan o'xshamayapti deysizmi? Shoshmang, shoshmang, o'zim bir boshidan aytib beryapman-ku, shoshiltirmay tursangiz-chi. Ko'rdingizmi, sal gapga ham asablarim o'ynoqlaydigan bo'lib qolgan. Xullas, hammasi men istiqomat qilayotgan "Farovon" mahallasiga Adolat Haqpararovna degan xonimning ijtimoiy xodim bo'lib kelishidan boshlandi.

Adolat Haqpararovna keldi-yu halovatim yo'qoldi. Men "soqqa"sini olib bolalar nafaqasi chiqarib bergan naq-sakkiz kishining bolalar nafaqasini uzib tashladi. Nima emish, har birining uchta-to'rttadan qoramoli, yetti-sakkiztadan qo'y-qo'zilar bormish. Kamiga o'n besh-yigirma sotixdan tomorqasiyam bor, hech biriga to'g'ri kelmaydi-daromadi oshib ketadi, noqonuniy olib yuribdi, deydi.

Cho'ntagingdan beryap-sanmi sen, ziqnalik qilasan. Davlatdan kelayotgan beminnat pul bo'lsa... Ularning o'rniga Zamonqul, Haydarbek, Mirzakarimlarga o'xshagan "qo'likalta" ehtiyojmand fuqarolar olishi kerak, deydi. Men ham bilaman ular olsa bo'lishini, lekin, ular menga "soqqa"sini bermadida. Eng alam qiladigan joyini aytadigan bo'lsa, o'zining ham olayotgan bolalar pulimni uzib tashladi.

Nomard Adolat Haqpararovna degani chatoq chiqdi.

Hech kimga ko'rsatmay semirtirib boqayotgan og'ilxonamdagi olti bosh buqalarimni ham, qaynim G'ayratning uyida turgan yangi avtomashinamni ham xatlov-dan o'tkazib ketibdi. Qancha-qancha rejalarim bor ediya bu "oqib" kelib turgan pullarga, esiz, esiz-a. Hammasining "tagiga suv quydi-ya" bu ukkg'ar.

Indamay qolaverdingmi, deysizmi? E, yo'q, markaz-gacha bordim, tizimlarni ham tekshirtirdim, zora biror aybi chiqsa, deb. Bu "ichidan pishgan" hamma ishini top-toza qilar ekanida, birorta kamchiligini, xatosini topolmadim. Bir-ikki kishini yollab "sovg'a" ham taklif etib ko'rdim, olmadi, pora emish. Nomard shuginani olsang hech bo'lmasa yo'likrangni ko'taradi-ku, degim keldi-yu, uning salobati bosib ayto'lmadim. Davlatimiz maoshiga qo'shib qo'shim-cha rag'bat, hattoki yo'likira ham to'lab berayotgan emish. E-e-e, shunaqa gaplar, birodar.

O'lganning ustiga tepkan qilib, kam ta'minlangan oilalar ro'yxatida turardim, undan ham chiqarib tashlabdi bu nomard. Hamma bir million so'mdan moddiy yordam oldi-yu men yana quruq qoldim. Menday "bechora", "nochor" doimo davlatdan moddiy yordam olib yurgan fuqaroya. Yomon alam qilib, ichim yonib ketyapti. Oldi qish kelyapti. Hali ko'mir olish kerak, svetga pul tashlash kerak.

Ha, mayli sandiqdagi "ko'kat"dan ishlatib turay-chi hozircha, qishdan eson-omon chiqib olsam boshqacha gaplashaman sen bilan, Adolat Haqpararovna. Meni hali yaxshi bilmabsan, axir men ismi jismiga monand Yebto'ymas Boqimandayevich bo'laman.

**Qoqqa ko'chiruvchi Sunnatillo ABDUKARIMOV.**



Инсон қадри

## Кексалик ҳам киши учун катта бахт

Ҳеч ким қаришни истамайди. Лекин узоқ умр кўришнинг бундан бошқа йўли ҳам йўқ ўзи.

Қаришдан кўриш керакмас, аксинча, уни яхшилаб муносиб кутиб олишга тайёргарлик кўриш жоиз аслида. Инсон куч-қувватга тўла, ишлаб чарчамайдиган, зўр пул топадиган даврини маишат, кайф-у сафога, бир зумлик, тезда ўтиб кетадиган ўткинчи хою-ҳавасларга эмас, узоқ давом этадиган қарилик даврини бахтли, мароқли, хотиржам ўтказиши зарур.

Қарилик бошланганда сиз бола-чақа ташвишларидан қўтилган бўлишингиз керак. Қиз узат, ўғил уйлантир, иморат сол, деган ташвишлар қари инсонга оғирлик қилади ва унинг умрини, соғлигини емириб ташлайди. Қарилик бошланганда албатта ўз уйингиз бўлмоғи лозим. Бировнинг (ҳатто ўз фарзандингизники бўлса ҳам) уйда яшаш сизга ҳеч қачон хотиржамлик, тинчлик ҳиссини бермайди. Барибир ўзингизни беғона, сизингиз, кимдандир қарздордек ҳис қилишингизга, доимий ҳадикда яшашингизга сабаб бўлади.

Илоҳи бўлса автомобилнинг бўлсин. Автомобиль сизга саёҳат қилишга, истаган жойингизга бориб келишга, эркин бўлишингиз учун албатта даркор. Жамғарилган пуллар ҳам бўлиши зарур. Қанча кўп бўлса, шунча яхши. Бу пул бировнинг қўлига қараб қолмаслик, керак бўлганда вақтида даволаниш, керакли муолажа, дори-дармонларни вақтида олиш, соғлом ва бақувват бўлишингиз, фарзандлар, аёлингиз, умуман атрофдагиларнинг сизни ҳурмат қилишлари, сизнинг фикрингиз билан ҳисоблашишлари

ри учун жуда зарур. Қариликда фақатгина арзимас пенсияга зор бўлиб қолишдан ёмони йўқ. Доимий пул келиб турадиган кўчмас мулкми, ижарага бериб қўядиган дўконингизми бўлгани маъқул.

Яна бир нарса. Барча мол-мулкнингиз, уй-жой, машинангиз



газ фақат ва фақат ўз номингизда турсин! Улиб қолсангиз нима бўлади? Вақт борида меросни фарзандларни номинга ўтказиб беринг деганларнинг гапларига тупуринг! Асло бу ишга рози бўла кўрманг!

Номингиздаги нарсаларни меъросхўрларнингизга ўтказиб беришингиз билан сиз нолга айланасиз. Ҳурматингиз ҳам, обрўингиз ҳам ўша захоти тугайди! Ўлганингиздан кейин бу мол-мулкларни сизга асло бермаги йўқ. Керак одамларнингиз эса бу мулкларни ўз номларига ўтказиб олишни ҳақ урдасидан чиқашди сизси!

Қариликда инсон овқатдан ҳам қолади. Озгина нарса еса тўйиб қолаверади. Лекин ўша озгина нарса албатта кўнглингиз тусанган нарса бўлмоғи лозим. Бунда сизга машинангиз

ва жамғармадаги пулларингиз асқотади.

Қариликда инсонга янги танишлар, янги чехраларнинг асло қизиғи бўлмайди. Бу даврда инсон эски дўстлари, эски танишлари, ўша эски, 30-40 йил бир ёстиққа бош қўйган турмуш ўртоғи билан бирга бўлгиси келади. Чунки фақатгина шулар уни тушунишади, уни қадрлашади, ярим оғиз гапидан, битта кўз қарашидан ичидагини, нима истаётганини тушунишади.

Қарилик бахтсизлик эмас

асло. Қарилик кишига ёшликда ухломмаган уйқуларни тўйиб ухлаш, Аллоҳ ибодатида бўлиш, қўлидан келганча яхшилик қилиш, ўзингиз истаганча вақтичоғлик қилиб, спорт билан шуғулланиш, ўзингиз истаганча яшаш, ёшликда ўқий олмаган китобларни ўқиш, кўнгли тусанган инсонларни билан суҳбат қуриш, истаган таомини ейиш, истаган жойига бориш, кўпроқ сайр қилиш, кўрган-кечирганларини эслаб, тахлил қилиш, хатоларни тугатиш имконини берувчи ажойиб бир даврдир. Бундай инсонлар ҳурмат-эътиборда бўлиб, мазмуни умр кўрган бўладилар. Аллоҳ ҳар бир бандага фароғатда, чиройли яшаш насиб этсин.

Тайёрловчи И.КАРИМОВ.

## АҚЛ ВА ИДРОК

Сунъий интеллект  
О, қандай маза.  
Турган-битгани  
Тенгсиз мўъжиза.  
Мен қойил қолдим,  
Лол очиб оғзим.  
Топшириқ бериб,  
Кутаман ўзим.  
Бир зумда ечар  
Масалаларни.  
Қотириш шартмас,  
Хом каллаларни.  
Вазифа тайёр,  
Кўчирсам бўлди.  
Кўнглимдан бир бор  
Кечирсам бўлди.  
Ёзилар иншо,  
Чизади расм.  
Қойил қоламан,  
Ишонмас кўзим.  
Аълодан аъло,  
Битар реферат.  
Конспект зарурми,  
Гап йўқ, кафолат.  
Вертуал олам,

Юқланган дастур.  
Сунъий идрок бу,  
Ишлар бадастур.  
Таржима қилар,  
Менга иш қолмас.  
Ёмонмас, лекин  
Ақлим ҳеч олмас.  
Телефондан зум  
Бўшамас қўлим.  
Ўзимга ўзим  
Қийламан зулим.  
Ишламас ақлим,  
Идрок қилмайман.  
Карра-каррани  
Ёддан билмайман.  
Тўқликка шўхлик,  
Хуш йўқ меҳнатга.  
Ялқовлигимдан  
Қолмай уятга.  
Баҳоларим “беш”,  
Лекин каллам бўш.  
Эртам не бўлар,  
Ким айтади хўш?!

Равшан ИСОҚОВ.

Шеърят олами

## ИСМИНГ...

Саккизта ҳарфдан иборат исминг,  
Менинг шодлигимга кафолат исминг.  
Агар ҳаёт кўшиқ бўлса, билгинки,  
Ҳаёт кўшигимга нақорат исминг.

Ўнгимда ўзингсан, ўзинг тушда ҳам,  
Қалбимда ўзингсан, ўзинг хушда ҳам.  
Мендан совуқ ўтмас ҳатто қишда ҳам,  
Борлигим қиздирган ҳарорат исминг.

Деворман тўкилиб, тулаш билмайман,  
Чўкмайдиган тоғман, нураш билмайман.  
Парвозим бардавом, қулаш билмайман,  
Мен учун юксалиш, камолот исминг.

Борми, уни мендек юракка ўйган,  
Сени орзу, мақсад, тилакка йўйган.  
Отангми, онангми билмам ким қўйган,  
Бирам аломат-ей, аломат исминг.

Саккизта ҳарфдан иборат исминг,  
Бахту қувончимга кафолат исминг.  
Агар умр кўшиқ бўлса, билгинки,  
Умр кўшигимга нақорат исминг.

Низомиддин МАДРАҲИМОВ.

## ОТАМНИНГ САБОҒИ

Одатдаги дам олиш кунларининг бири эди. Кеча ён қўшим Норматбойнинг тўйида сахархездан то ярим тунгача хизматда олиб-югурганим учун барвақт уйғонган бўлсамда туришга эриниб ётардим. Оёқ-қўлларим яхшигина зирқираб оғир, аммо кайфиятим зўр эди. Албатта, димоғим чоғ бўладида. Негаки “Узоқдаги қариндошдан, яқиндаги қўшни афзал” деган мақолга амал қилгучи хамсоям доимо “ўтимдан кириб қулмидан чиқадиган” яъни, катта-ю кичик тўй-тантанамда жон куйдирадиган бўлгач, каминча бир чеккада қўл қовуштириб турса уятда. Хуллас, охириги меҳмонни кузатгучи Норматбойнинг ёнида сабру бардош билан туриб бердим. Қўшим мени алқаб қолди.

Тўйдаги қилган беминнат хизматимдан мамнун ётарканман дарвоза кетма кетига тақиллаб қолди. Хотиним югургилиб бориб очди. Келувчи нари-бери аҳвол-лашгач овозини баландлатиб юборди:

-Келин, Мустафоқул қани? Ётибди? Тавба, бир кунлик тўйда хизмат қилган бўлса нима қипти? Ё ичкилик ичгани ўргандими? Йўқ, ҳа яхши, йигит кишига чарчадим дейиш уят. Айтишадик “Йигитнинг кучи эшакнинг ели” деб. Бориб турғазинг. Чошгоҳгача ётмасин яллайиб. Дам олиш кунидея рўзгорга қарашин. Сизга ёрдам берсин. Йўқ, йўқ кирмайман. Норсоатнинг наҳор ошига бораёяман. Кечкурун набираларни олиб уйга ўтинлар. Чарос ўқишга кирди. Зиёфат бўлади. Шунга айтайин деб бурилдим.

Санъаткорлар ибораси билан айтганда, бас овозига эга келгучи одам – отам. Гарчи ҳарбий бўлмасда ҳарбий интизомни хуш кўрадиган феълли, қаттиқ қўл киши. Муздек сувда юз-қўлни ювиб роҳатланар эканман, хаёл беихтиёр ёшлик йилларимга олиб қочди.

Мақтабни битиргач, кетма-кет икки йил институтга ўқишга киролмадим. Билимим пастмиди ё толемим, ишқилиб омад мендан юз ўтирдим. Хайрият, шундай тушкун кайфиятли дамлар исканжасидан ҳарбий хизмат кутқарди. Армияда ҳам тиришиб-тирмашиб ўқишга тайёргарлик кўрдим. Мақсад отамнинг юзини ерга қаратмаслик, ўзимнинг ҳам орзу-

(Ҳажвия)

имга эришиш. Айниқса, у кишининг иккинчи марта шалвираб қайтганимда онамга айтган саволомуз гапи қўлолим остида бот-бот жаранглаб турарди.

-Менга қара онаси, - деганди отам ўшанда. - Бунинг кимга тортиди экана? Менга ўхшаса ҳозир инстинг ичгани тўрида гўдайдий юриши керак эди. Сенга ўхшаса ҳам пишиқ, пухта студент бўларди. Мабодо турғуқонада доялар адашиб бировнинг боласини бериб юбормаганимкан?

-Астафируллоҳ денг, - деб тавба қилиб қолганда онам рангида ранг қолмай. Армиядан қайтгач, тайёргарликка яна зўр бердим. Энди уйдагиларнинг ташвиши икки ҳисса ортганди. Укам ҳам мактабни битирган, ўқишга кириш ниятида эди. Синолда ҳеч қийналмадим. Омадим келди деб хурсанд эдим. Чунки барча саволлар таниш, жавобларни тўғри ечганим. Биринчилардан бўлиб топширдим.

Синов имтиҳонлари жавобини кутиб юрган кунларнинг бирида маҳалла гузариди Холбой ҳовлиқма деган ҳамқишлоғимни учратиб қолдим. У лақабидан маълум миш-миш тарқатувчи қўланса гапли одам. Мени кўриб қашга тегадиган гап қовлашни бошлади. Шунда “ке, бир боппай” дедимда ўқишга яна киролмаганимни, тест жавобларимга ноль балл чиққанини айтиб роса “куйиндим”. Кузатиб туриб ҳовлиқманнинг ташиди “ачин-

гани”ни, ичида эса суюнганни сездим.

Ёзинг жазирасидан толиқиб дам олар эканман кечки пешинда отамнинг мошқалдироқдек овозидан уйғониб кетдим.

-Нимага ишонмай, - дерди отам овозини баралла қўйиб. - Ҳовлиқмага ўзи айтибди. Ўғлинг яна институтга киролмаганмиш. У бу гапни осмондан олиб айтмагандир.

-Болам похир синов натижаси бугунам қиқмабди деб келдику, - дея онам ҳайрон бўларди. - Ўғлим мени алдамайди.

-Э, сени хафа бўлмасин деганда, - отамнинг энаси қотди. - Шунинг учун ёлғон гапирган. Бўлди. Чақир икковиниям. Ўқиш деганни хаёлидан чиқарсин. Энди менинг айтганим айтган, деганим деган бўлади. Гап тамом. Бир неча дақиқадан сўнг ака-ука отам қаршида турардик.

-Эшитинглар, -деди отам қўлидаги пиёладан чай сиқибди. - Том устини очиб қайта ёпиш керак. Уста билан гаплашиб келдим. У эски шифер, стропилларни олиб қўйинглар. Икки-уч кунда бораман деди. Ҳозирдан ишни бошлайсилар. Икковиниям устага ёрдам берасанлар. Тушунарлими?

Онам бизни ҳимоя қилиб бир нима демоқчиди отам бўри қараш билан жим қолди.

Юқорида айтганимдек, отам ҳарбий бўлмасаям ҳарбий тартиб-интизомни яхши ўзлаштирган деб. Шу кундан, шу сониядан бошлаб саратоннинг сариқ куниди, нақ офтоб тиғида ишга киришдик. Аксига олиб отам ишхонасидан таътилга чиқиб биз “устабузармонлар”ни назорат қиладиган бўлди.

Армиядагидек эрталабдан уйғотилиб бадан тарбия машқи уй тепасидаги “жанговар” майдонда бошланади ва чошгоҳгача, яъни ношуша маҳалигача бўлади. “Чошгойи чай” дан сўнг ўн дақиқа ҳордиқ чиқарилиб асосий машғулота – шифе-

ру стропилларни кўпориш давом эттирилади. Назоратчи бошлик – отам ҳовлидаги соя тағидаги “кузатув пункти” – супада ўтирганча кузатиб боради. Мабодо машғулот – ишда сал сусткашликка йўл қўйилса талабни янаям оширади. Кунлик топшириқ бажарилмагунча иш вақти давом этади.

Гарчи армия кўрган бўлишимга қарамай икки кунда бўларим бўлди. Ҳали гўр укам фақирнинг аҳволини айтмай қўя қолай.

-Қаёқданам шу лаънати ҳовлиқмага дуч келдингиз, - тўнғиллайди у. - Ҳазил қилман деб мениям зилга дучор қилдингиз.

Тўртинчи куннинг аримда юмушининг асосий қисмини аранг тугатдик. Тушлиқда ўтирар эканмиз шаҳарга тушиб кетган отам келиб қолди.

-Эркин, - деди у қувлик билан жилмайганча шоша-пиша ўрнимиздан тураётганимизни кўриб. - Институтга бориб қайтдим. Тест натижалари чиқибди. Икковларинг ҳам ўқишга қабул қилинбасан. Табриклайман. Жўрабек сен ҳозирдан ишдан озодсан. Мустафоқул сен эса бемалол ишни давом эттиравер. Ҳойнаҳой сабабини тушунгандирсан. Топшириқ тушунарлими?

-Нима учун мен? – бўғилди сўрадим. – Бу бориб турган ноҳақликку?

-Отставить, - деди бошлик – отам қовоғини уюб. – Буйроқ муҳокама қилинмайди. Сен шунга лойиксан. Чунки ёлғон гапириб одамларни алдагансан, гуноҳга ботиргансан.

-Сиз буни бошдан билганимдингиз? – ажабланди онам.

-Ҳа, билганим. Нега билмас эканман? – деди отам мулоим жилмайганча. – Катта бир ташкилотда катта лавозимда ишлайдиган қап-катта одам келиб-келиб ҳовлиқманнинг гапига ишонармидингиз. Бу “жазо”ни эса ўғлингнинг иккинчи марта ёлғон гапирмаслиги учун ўйлаб топганим. Укасини ёнига қўшганим эса кенжатоғига ҳам сабоқ бўлсин дедимда.

М.ХОЛМИРЗАЕВ.

Ёнғин хавфсизлиги – ҳаётимиз хавфсизлиги

## Газ чақнашидан эҳтиёт бўлинг

Бўлимимиз ходимлари қиш фаслида об-ҳавонинг кескин совиб кетиши оқибатида фуқаролар яшаш уйларида иситиш печлари ва мўриларини синовдан ўтказмасдан ёқиши ёки ёқилган иситиш печлари мўрисини уйнинг шифт ва чордоқ қисмларидан чиқаришда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш чораларини кўрмганликларини, носоз газ ва электр иситгичлардан ҳамда қўлбола газ сўргичлардан ноқонуний фойдаланишлари оқибатида ёнғинлар содир бўлганлигини бир неча маротаба аниқлаганлар. Масалан, ўтган йили мос даврда 17 та ёнғин содир бўлиб, асосан аҳоли яшаш уйларида очик оловдан эҳтиётсизлик оқибатида рўй берган. Шундай экан, мол-мулкимизни асрашда, қолаверса, ёш болаларимиз ва яқинларимиз оловдан тан

жароҳати олишларининг олдини олиш мақсадида, айниқса, газ чақнашидан эҳтиёт бўлайлик. Муҳими куйидаги оддий ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилайлик:

-уйингизда ёниб турган газ ва электр асбоблари ҳамда иситиш печларини назоратсиз қолдирманг;  
-носоз ва қўлбола газ ва электр асбобларидан фойдаланманг;  
-газини резина шланг ва қўлбола газ сўриш мосламалари билан улаб фойдаланманг;  
-газ ва электр асбобларини ёқишни ёш болаларга ишониб топширманг;  
-иситиш печларининг носоз жойлари ва мўрисини ўз вақтида таъмирланг;  
-иситиш печи ва мўриконларини бинонинг ёғоч қисмидан 38 сантиметрдан кам

бўлмаган масофада ўрнатинг; -иситиш печларини қаттиқ қиздириб юборманг, уларнинг яқинига мебель ва бошқа тез ёнадиган буюмларни қўйманг;

-ностандарт ва қўлбола сақлагичлардан ҳамда вақтинчалик электр симларидан фойдаланманг;  
-яшаш уйингизнинг ертўла ва чордоғида тез ёнувчан хас-хашаклар ва тез алангаланувчи ёқилма маҳсулотларини сақланманг.

Содир бўлган ёнғинни кўрсангиз, зудлик билан “101”, 34-32-101 ҳамда 34-32-192 телефон рақамлари орқали туман фавулодда вазиятлар бўлимига хабар бериш.

Катта лейтенант С.КОДИРОВ, туман фавулодда вазиятлар бўлими катта инспектори.

## Muzrabot pedagogika kolleji tuzatildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmonining 3-ilovasiga asosan Muzrabot pedagogika kolleji negizida 58-son umumiy o'rta ta'lim

E'lon

maktabi tashkil etilganligi munosabati bilan kollej faoliyati 2026-yil 1-yanvardan tugatilganligi ma'lum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Kelgusida kasbiy ta'lim muassasalari sifatida faoliyat yuritmaydigan ta'lim

muassasalarining faoliyatini tugatish va ularga huquqiy vorisligini belgilash to'g'risida" 2025-yil 24-oktabrdagi 415-son buyrug'iga asosan Muzrabot pedagogika kollejiga huquqiy voris etib Muzrabot tumanidagi Surxondaryo viloyati ilg'or kasbiy mahorat texnikumi belgilangan.

Kollej faoliyatini tugatish komissiyasi.

Qudratov Shukurulla Xabibovichga tegishli 2021-yilda ishlab chiqarilgan, AAF 3761299 raqamli avtotransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma berilgan «LABO» rusumli avtomobilning 75 G 975 OA bo'lgan davlat raqam belgisi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Qodirova Gulruh Mamatqul qiziga tegishli 2021-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 75 X 982 TA bo'lgan «COBALT» rusumli avtomobilga 2023-yil 17-avgustda berilgan AAG 2155779 raqamli avtotransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Isoqov Otabel Boboqulovichga 2025-yil 5-sentabrda berilgan AD 2553278 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Xo'jamqulova Dilfuza Xo'jamurodovnaga tegishli 2010-yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 75 R 615 RA bo'lgan «LASETTI» rusumli yengil avtomobilga 2023-yil 30-yanvarda berilgan AAG 0851552 raqamli avtotransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

«Muzrabot» gazetasi taхririya gazeta musaxхixi Oйша Ҳақимовага отаси **Хуррам ҲАКИМОВ**нинг вафоти муносабати билан таъзия билдиради.

MUZRABOT

MUASSISLAR:  
Xalq deputatlari  
Muzrabot tumani Kengashi  
va tuman hokimligi

Muharrir  
Abdusalom YO'LDOSHEV

Tahririyat manzili:  
191300. Muzrabot tumani, Alqobod qo'rg'oni,  
Amir Temur ko'chasi, 38-uy.  
Telefon: (+998) 99 671 57 58.

Gazeta 2010-yil 9-aprelda Surxondaryo viloyati Matbuot va axborot hududiy boshqarmasida 11-010 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. ISSN 2181-7006.

Buyurtma G-1600 nusxada bosildi. Qog'oz bichimi A-2. Hajmi 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Nashr indeksi-473.

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi. Sahifalovchi B.Shoyardonov. Navbatchi muharrir A.Yo'ldoshev. Navbatchi S.Qulboyev.

Gazeta «Surxon tongi» va «Zarya Surxana» gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi. Korxonada manzili: 190100, Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy. Topshirish vaqti - 14-00. Topshirildi - 14-00